



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 142 sahifa,  
12-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish .....	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar .....	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults .....	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха" .....	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish .....	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari .....	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari .....	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish .....	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni .....	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish .....	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Ollqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi .....	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish .....	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari .....	98
<b>Umurov Sharif Rajabovich</b>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash .....	102
<b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</b>	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта .....	106
<b>Панжиева Назокат Норматомовна</b>	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации .....	111
<b>Тураева Дилфуза Даминовна</b>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri .....	116
<b>Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi</b>	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy .....	120
<b>Inomidinova Dildorxon Ikramovna</b>	
O'smirlilik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
<b>M. S. Usmonova</b>	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners .....	130
<b>Tahirova Shaxribonu</b>	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
<b>Хамидова Нигора Тулкуновна</b>	

# ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA ULARNING TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda interfaol metodlar, raqamli ta'lim vositalari va kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil etishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritilgan. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, raqamli ta'lim, kompetensiya, ta'lim samaradorligi, innovatsion yondashuv, mustaqil ta'lim, ta'lim sifati.

**Abstract:** This article examines the role of modern pedagogical technologies in the educational process, their impact on the development of learners' knowledge, skills, and competencies, as well as their contribution to improving educational effectiveness. The study analyzes the theoretical and practical aspects of organizing instruction based on interactive methods, digital learning tools, and the competency-based approach. Particular attention is given to the opportunities for enhancing the quality of education and fostering students' independent thinking skills through the implementation of innovative pedagogical technologies in educational practice.

**Key words:** pedagogical technology, interactive methods, digital education, competency, educational effectiveness, innovative approach, independent learning, quality of education.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль современных педагогических технологий в образовательном процессе, их влияние на развитие знаний, умений и компетенций обучающихся, а также на повышение эффективности обучения. Анализируются теоретические и практические аспекты организации учебного процесса на основе интерактивных методов, цифровых образовательных средств и компетентностного подхода. Особое внимание уделяется возможностям повышения качества образования и развития навыков самостоятельного мышления обучающихся посредством внедрения инновационных педагогических технологий в образовательную практику.

**Ключевые слова:** педагогическая технология, интерактивные методы, цифровое образование, компетенция, эффективность обучения, инновационный подход, самостоятельное обучение, качество образования.

## KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida ta'lim tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda jamiyatning intellektual salohiyatga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda.

Zamonaviy sharoitda ta'lim nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodiy yondashish va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Yangi O'zbekistonda ham ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda ta'lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash, elektron ta'lim resurslarini yaratish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday islohotlarning asosiy maqsadi ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashdan iborat.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini oldindan loyihalashtirish, tashkil etish, boshqarish va natijalarni baholashga qaratilgan tizimli yondashuv hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalarning asosiy vaziri-



fasi o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ta'lim jarayonida ularning mustaqil ishtirokini ta'minlash va bilimlarni samarali o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratishdir.

Bugungi kunda interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, modulli ta'lim, masofaviy ta'lim va elektron o'qitish texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning faolligini oshirish, ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

An'anaviy ta'lim tizimida o'quvchi ko'pincha tayyor bilimlarni qabul qiluvchi sifatida namoyon bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llanilganda u ta'lim jarayonining faol subyektiga aylanadi. Natijada o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, muammolarni mustaqil hal etish va jamoada ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rganish hamda ularni amaliyotga samarali joriy etish mexanizmlarini aniqlash bilan belgilanadi. Mazkur maqolaning maqsadi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim sifatiga ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning afzalliklarini yoritib berishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar masalasi pedagogika fanida eng ko'p o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning o'rni keng yoritilgan.

Pedagogik texnologiya tushunchasi ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy muomalaga kiritilgan. Ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan olimlardan biri V.P. Bepalko bo'lib, u pedagogik texnologiyani ta'lim jarayonini oldindan loyihalashtirish va kafolatlangan natijaga erishishga xizmat qiluvchi tizim sifatida talqin qilgan. Olimning fikricha, pedagogik texnologiyaning asosiy vazifasi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va o'quvchilarning bilimlarni puxta o'zlashtirishini ta'minlashdan iborat.

M.V. Klarin pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida maqsadga erishishga qaratilgan metodlar, vositalar va tashkiliy shakllarning o'zaro bog'liq tizimi sifatida izohlaydi. U zamonaviy ta'limda interfaol metodlarning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratib, o'quvchilarning faol ishtiroki ta'lim sifatini oshirishini ta'kidlaydi.

O'zbekistonlik olimlardan N.N. Azizxo'jayeva pedagogik texnologiyalarni o'qituvchining kasbiy mahorati bilan chambarchas bog'liq holda o'rganadi. Uning tadqiqotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy faoliyatga va amaliy muammolarni hal qilishga yo'naltirishi qayd etilgan.

O'. Tolipov va M. Usmonboyevalarning ilmiy ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari keng yoritilgan. Mualliflar ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshirishi, o'quv materiallarini chuqurroq o'zlashtirishga yordam berishini ilmiy asoslab berganlar.

R. Ishmuhamedov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Olimning fikricha, "Aqliy hujum", "Klaster", "BBB", "Insert" kabi metodlar o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida J. Deweyning ishlari ham alohida ahamiyatga ega. U ta'lim jarayonida amaliy faoliyat va tajribaga asoslangan yondashuvlarni qo'llash zarurligini ta'kidlagan. Deweyning qarashlari keyinchalik loyiha asosida o'qitish va muammoli ta'lim texnologiyalarining rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Shuningdek, UNESCO va OECD tomonidan e'lon qilingan ilmiy hisobotlarda raqamli texnologiyalarning ta'lim sifatiga ta'siri keng o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasi, bilimlarni o'zlashtirish darajasi va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishi qayd etilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar pedagogik texnologiyalarni amaliyotga yanada kengroq joriy etish hamda ularning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarurligini ko'rsatmoqda.

## TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, ilmiy adabiyotlarni o'rganish va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida umumta'lim maktablari hamda oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tanlandi.

Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalariga oid ilmiy manbalar tashkil etdi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o'rganilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati va afzalliklari tahlil qilindi. Amaliy tadqiqot jarayonida dars mashg'ulotlari kuzatildi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar an'anaviy usullarda o'tkazilgan darslar bilan qiyoslandi.

Tadqiqot davomida quyidagi texnologiyalardan foydalanildi:

1. “Aqliy hujum” metodi;
2. “Klaster” metodi;
3. “Insert” texnologiyasi;
4. “BBB” jadvali;
5. Loyiha asosida o'qitish;
6. Muammoli ta'lim;
7. Multimedia vositalari;
8. Elektron ta'lim platformalari.

Mazkur metodlar yordamida o'quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqil ishlash ko'nikmalari, bilimlarni o'zlashtirish darajasi va ijodiy yondashuvlari baholandi. Tadqiqot davomida o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazildi, anketa so'rovlari tashkil qilindi va o'quv natijalari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri aniqlashtirildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning bilim olish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Interfaol metodlardan foydalanilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning darsga qiziqishi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. O'quvchilar dars davomida faol ishtirok etib, o'z fikrlarini erkin bayon qildilar.

Guruhi ishlash va jamoaviy muhokamalar orqali ular muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirdilar. Ayniqsa, loyiha asosida o'qitish texnologiyasi o'quvchilarning mustaqil izlanish olib borish va amaliy natijalar yaratish qobiliyatlarini rivojlantirdi. Elektron ta'lim resurslaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Multimedia vositalari yordamida mavzularning vizual tarzda tushuntirilishi o'quvchilarning materialni yaxshiroq o'zlashtirishiga imkon yaratdi.

Anketa natijalariga ko'ra, respondentlarning aksariyati zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar an'anaviy darslarga nisbatan qiziqarli va samarali ekanligini ta'kidladilar. O'quvchilarning katta qismi elektron ta'lim resurslari va interfaol metodlar bilimlarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etdi.

Tahlillar natijasida quyidagi ijobiy o'zgarishlar aniqlandi:

1. O'quvchilarning darsdagi faolligi oshdi;
2. Mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlandi;
3. Muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati shakllandi;
4. Jamoada ishlash malakalari takomillashdi;
5. Bilimlarni o'zlashtirish sifati yaxshilandi;
6. O'quvchilarning motivatsiyasi ortdi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini berishini ko'rsatdi. Interfaol metodlar o'quvchilarni faollikka undaydi, ularda muloqot madaniyatini shakllantiradi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Muammoli vaziyatlarni yaratish orqali o'quvchilar bilimlarni tayyor holda qabul qilish o'rniga ularni mustaqil ravishda izlashga va tahlil qilishga o'rganadilar. Loyiha asosida o'qitish metodining afzalligi shundaki, u nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'laydi. O'quvchilar loyiha ustida ishlash davomida ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi ham muhim natijalar bermiqda.

Elektron darsliklar, videodarslar, virtual laboratoriyalar va onlayn platformalar ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bunday vositalar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va differensial yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud.



Ayrim ta'lim muassasalarida texnik bazaning yetarli emasligi, internet tarmog'ining sifati va pedagoglarning raqamli kompetensiyalaridagi kamchiliklar texnologiyalardan samarali foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, ayrim o'qituvchilar an'anaviy yondashuvlardan voz kechishga tayyor emasligi ham kuzatiladi.

Shu sababli pedagoglarning malakasini muntazam oshirib borish va zamonaviy texnologiyalar bo'yicha amaliy treninglar tashkil etish zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini rivojlantirish, uning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va ta'lim sifati oshirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtiradi hamda ta'lim sifati yaxshilaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular ta'lim jarayonida o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydi va bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish ta'limning ochiqligi, moslashuvchanligi va samaradorligini oshirish imkonini yaratadi.

Kelgusida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarining texnik bazasini mustahkamlash va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish ta'lim tizimi taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Shunday qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga keng tatbiq etish o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ta'lim sifati oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2010.
2. Muslimov N. A., Usmonboyeva M. H. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. - Toshkent: O'qituvchi, 2016.
3. Yo'ldoshev J. G., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2004.
4. Ziyomammedov B. Ta'lim texnologiyalari. - Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2006.
5. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. - Toshkent, 2020 (yangi tahrir).
6. O'zbekiston Respublikasi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - Toshkent, 1997.
7. UNESCO. Information and Communication Technology in Education: A Curriculum for Schools and Programme of Teacher Development. - Paris: UNESCO, 2002.
8. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. - Cambridge University Press, 2014.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.